



INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODELS FOR LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Ulugbek Yusubov

Independent researcher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15333160>

ARTICLE INFO

Received: 25th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Artificial intelligence, legal regulation, international experience, ethics, data security, algorithmic transparency, responsibility, global standards.

ABSTRACT

The article analyzes international experience and models in the legal regulation of artificial intelligence (AI) technologies. Ethical, legal, and social issues associated with the rapid development of AI, as well as ways to address them, are examined. Legislative initiatives of the USA, the European Union, China, and other countries are reviewed, with particular focus on data security, algorithmic transparency, and accountability. The importance of international cooperation and the need to establish global standards are emphasized. Proposals for regulating AI in Uzbekistan are developed.

SUN'YI INTELLEKTNI HUQUQIY BOSHQARISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA VA MODELLAR

Ulugbek Yusubov

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15333160>

ARTICLE INFO

Received: 25th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Sun'iy intellekt, huquqiy tartibga solish, xalqaro tajriba, etika, ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik shaffoflik, mas'uliyat, global standartlar.

ABSTRACT

Maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini huquqiy tartibga solish bo'yicha xalqaro tajriba va modellar tahlil qilinadi. SIning tez rivojlanishi bilan bog'liq etik, huquqiy va ijtimoiy muammolar, shuningdek, ularni yechish yo'llari ko'rib chiqiladi. AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va boshqa davlatlarning qonunchilik tashabbuslari, xususan, ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik shaffoflik va mas'uliyat masalalariga e'tibor qaratiladi. Xalqaro hamkorlikning ahamiyati va global standartlarni shakllantirish zarurati ta'kidlanadi. O'zbekistonda SI ni tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Mazkur maqolada sun'iy intellektni tartibga solishga oid global strategiyalar, yondashuvlar va muammolar tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy sohalarga ta'siri ortishi jarayonida uni tartibga solish uchun aniq va axloqiy me'yorlarga asoslangan mexanizmlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kun ortib borayotganligi yoritib o'tilgan.



Maqolaning asosiy qismi sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha turli davlatlar amaliyotiga bag'ishlangan. Masalan, Yevropa Ittifoqi xavf darajasiga asoslangan tizimli yondashuvni qo'llab-quvvatlasa, AQSH o'z federal agentliklari orqali sohaga xos tavsiya va standartlar bilan markazlashmagan modelni qo'llaydi. Xitoy esa milliy xavfsizlik va raqamli suverenitetni birinchi o'ringa qo'ygan holda davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadigan va markazlashgan yondashuvni tanlagan. Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va Singapur esa axloq va barqaror rivojlanishga asoslangan innovatsion va moslashuvchan siyosatlarni amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga, maqolada xalqaro standartlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynayotgan xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, OECD tomonidan sun'iy intellektni mas'uliyatli ishlatish tamoyillari, YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan va aksariyat davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan axloqiy tavsiyalar yoritilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, G7, G20 guruhlar va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tomonidan sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslar ko'rsatib o'tilgan.

Maqolada texnologiyalarning tez sur'atda rivojlanishi, davlatlar o'rtasidagi madaniy va huquqiy farqlar hamda xalqaro miqyosda yagona normalarning yo'qligi sun'iy intellektni samarali boshqarishda jiddiy muammolar tug'dirayotgani ko'rsatilgan. Bu muammolarga javob sifatida universal tamoyillar – oshkoralik, adolat, ma'lumotlarni himoya qilish, hisobdorlik va inson nazoratiga asoslangan moslashuvchan boshqaruv modellarini joriy etish taklif qilinadi. Maqola sun'iy intellekt sohasida texnologik taraqqiyotni ta'minlash bilan birga inson huquqlarini ham muhofaza qiladigan global boshqaruv tizimini yaratish uchun milliy va xalqaro darajada sa'y-harakatlarni birlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Maqoladagi kalit so'zlar va tayanch tushunchalar: sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish, avtonom tizimlar, katta ma'lumotlar, algoritmlar, ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi, kiberxavfsizlik, jamiyat farovonligi, sun'iy intellekt etikasi va ahloqi, xatarlari va sun'iy idrokdan mas'uliyatli foydalanish.

Sun'iy intellekt bugungi kunda hayotimizning ko'pgina sohalariga shiddat bilan kirib keldi. Smartfonlar va kompyuterlardan keng miqyosda foydalanish natijasida mamlakatimiz aholisining keng qatlami hozirda sun'iy intellekt bilan yetarli darajada tanishib ulgurdi. Xosh, Sun'iy intellekt o'zi nima?

Sun'iy intellekt – bu inson aqlini talab qiladigan vazifalarni bajarish bilan bog'liq intellektual jarayonlarni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan kompyuter tizimlari majmuidir. Ushbu vazifalar tilni tushunish, qarorlar qabul qilish, murakkab muammolarni hal qilish, qonuniyat va takrorlanishlarni anglab olishni o'z ichiga oladi. Sun'iy idrok asosida kuchli algoritmlar va keng ma'lumotlar to'plamlari yotadi, bu kompyuter dasturiga o'z tajribasidan o'rganib borish va javoblarni moslashtirish imkonini beradi. Ushbu texnologik yutuq sanoat sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, odamlarning yashashi, ishlashi va ijtimoiy aloqalarini o'zgartirmoqda.

Sun'iy intellekt rivojlanishining asosiy elementi – bu mashinaviy o'qitish (Ingliz tilida – Machine Learning), ya'ni kompyuter tizimining mustaqil o'rganish qobiliyati bo'lib, u orqali tizim yangi ma'lumotlarni doimiy ravishda tahlil qilish bilan aniqlik va samaradorlikni oshiradi. Ushbu moslashuvchan qobiliyat sun'iy intellektga vaqt o'tishi bilan o'z bashoratlarini va



qarorlarini yaxshilash imkonini beradi. Avtonom tizimlar, masalan, avtopilotli mashinalar va aqlli robotlar, o'zining mustaqil ishlashini va doimiy o'zgarayotgan muhitga moslashish qobiliyatini namoyish qilib boradi.

Sun'iy intellektning jamiyatga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, taraqqiyotni qo'llab-quvvatlamoda va shu bilan birga yangi muammolarni xam keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellekt tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan innovatsiyalar tibbiyot, ta'lim, transport va savdo kabi sohalarni yangilanishiga, iqtisodiy o'sishga va hayot sifatining yaxshilanishiga yordam bermoqda. Aqlli shaharlar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va ilg'or davlat xizmatlarini ko'rsatish kabi misollar sun'iy intellektning jamiyatni qanday yaxshilayotganini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, ushbu natijalar chuqur tahlil va monitoringni talab qiladi. Chunki bu holat algoritmlardagi noxolislik, ma'lumotlarni maxfiyligini ta'minlash, kiberxavfsizlikdagi kamchiliklar va mehnat bozoridagi o'zgarishlar bilan bog'liq yangi muammolarni vujudga keltirmoqda. Xatoliklarga yo'l qo'yilgan xolda dasturlangan yoki tartibga solinmagan sun'iy intellekt tizimlari salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Sun'iy idrokning tezkor rivojlanishi yangi texnologiyalar foydali, axloqiy va ishonchli bo'lishini ta'minlash uchun xavf-xatarlarni doimiy ravishda baholab borish va xavfsizlik choralari ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Sun'iy intellektning foyda va xavflarini inobatga olib, hukumatlar, sanoat va fuqarolik jamiyati kompleks boshqaruv tuzilmalarini yaratish ustida faol ishlamoqdalar. Sun'iy intellektning rivojlanishini axloqiy chegaralar doirasida boshqarish uchun normativ hujjatlar ishlab chiqilgan taqdirda innovatsiyalar jamoat farovonligiga zarar yetkazmaydi. Yaxshi yo'lga qo'yilgan boshqaruv mexanizmlari texnologik taraqqiyotni jamiyatning barcha qatlamlari uchun foydali natijalarga yo'naltirishga yordam beradi, ishonchni mustahkamlash va mas'uliyatli foydalanishni rag'batlantiradi.

Aniq va izchil boshqaruv tizimlarini yaratish sun'iy intellektning rivojlanishini boshqarish uchun zarurdir. Hukumatlar uchun bunday tizimlar inson huquqlarini himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun kerak bo'lgan huquqiy va axloqiy standartlarni belgilaydi. Moslashuvchan qoidalar yangi texnologik muammolarga tezkor tarzda javob topishga imkon beradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va dasturchilarga aniq ko'rsatmalar beradi. Bu faol yondashuv texnologik taraqqiyotning jamiyat qadriyatlari va xavfsizlik standartlariga muvofiqligini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt allaqachon milliy chegaralar doirasidan chetga chiqdi, bu esa muvofiqlashtirilgan xalqaro boshqaruv zaruratini vujudga keltiradi. Bir mamlakatda yaratilgan sun'iy intellekt tizimi boshqa mamlakatlarga ham ta'sir qilishi xavfsizlik va axloqiy standartlarni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojni ko'rsatmoqda.

Xalqaro hamkorlik mamlakatlarga bilim almashish, texnik standartlarni muvofiqlashtirish va kiberxavf-xatarlar hamda algoritmik noxolislik kabi umumiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Sun'iy intellektni o'zaro hamkorlikda tartibga solishni yo'lga qo'yish milliy suverenitetni global qoidalar bilan muvozanatlashtirishga yordam beradi. Ushbu jamoaviy yondashuv ishonchni mustahkamlash, innovatsion jarayonni rag'batlantirish va sun'iy intellektning global barqarorlik va umumiy farovonlikka hissa qo'shishiga xizmat qiladi.



Ma'lumki, dunyodagi turli mamlakatlar o'zlarining huquqiy an'analari, siyosiy maqsadlari va madaniy xususiyatlarini inobatga olib, sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha turli modellardan foydalanmoqdalar. Ba'zi mamlakatlar qat'iy huquqiy nazoratni afzal ko'rsa, boshqalari moslashuvchan, innovatsion yondashuvlarga e'tibor qaratmoqdalar. Ushbu modellar tahlili turli tizimlar texnologik taraqqiyotni jamoat xavfsizligi va axloqiy me'yorlar bilan qanday muvozanatlashtirayotganini ko'rsatadi.

Milliy sa'y-harakatlardan tashqari, xalqaro tashkilotlar sun'iy intellektning global boshqaruvini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD), UNESCO, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), G7 va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti kabi xalqaro birlashmalar umumiy tavsiyalar yaratish va transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirish ustida ishlamoqdalar. Ushbu jamoaviy sa'y-harakatlar sun'iy intellektni mas'uliyatli ishlatish uchun umumiy yondashuvni yaratishga va yuzaga kelayotgan global muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Agar sun'iy intellektni tartibga solish fragmentar (qisman) bo'lsa yoki izchil yo'lga qo'yilmasa, algoritmlardagi noxolisliklarga, shahsiy ma'lumotlarning tarqalishiga, ommaviy ish o'rinlarining yo'qolishiga, noto'g'ri ma'lumot tarqatishiga yoki avtonom qurollarning noqonuniy tarqalishiga olib kelishi mumkin. Xalqaro qoidalar o'rnatilmasa, sun'iy intellekt tizimlari xavfsizlik, adolat va javobgarlik bo'yicha turli standartlar asosida dasturlanishi mumkin, bu esa milliy chegaralar doirasidan chiqib, global xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir qiladigan salbiy natijalarga olib keladi.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar – OECD hamda UNESCO tomonidan qabul qilingan hujjatlarga muvofiq (2019 yilgi OECD Sun'iy Intellekt Prinsiplari va 2021 yilgi UNESCO Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalar), sun'iy idrokni mas'uliyatli boshqarishning asosi sifatida quyidagi beshta asosiy tamoyillar mavjud: shaffoflik va tushunarli bo'lish, adolat va diskriminatsiyadan holi bo'lish, ma'lumotlarning maxfiyligi va himoya qilinganligi, hisobdorlik hamda inson nazorati va boshqaruvini ta'minlash. Ushbu tamoyillarga rioya qilish sun'iy intellekt tizimlarining nafaqat innovatsion, balki xavfsiz, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga mos bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu printsiplarga amal qilish orqali qonun chiqaruvchilar va dasturchilar sun'iy intellekt texnologiyalariga bo'lgan ishonchni kuchaytirishi va ularning turli sohalar va mamlakatlarda mas'uliyatli ishlatilishini ta'minlashi mumkin.

Ilg'or xalqaro tajribaga to'htaladigan bo'lsak, sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha yetakchi modellar turli yondoshuvlarga ega. Har biri milliy manfaatlar, huquqiy tizimlar va strategik maqsadlarga qarab shakllanadi. Quyida Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va boshqa yetakchi mamlakatlarning yondashuvlari ko'rib chiqiladi va xavfsiz, axloqiy va innovatsion rivojlanishga olib boradigan turli yo'llar yoritiladi.

Yevropa Ittifoqi sun'iy intellektni tartibga solishni birinchilardan bo'lib, faollik bilan va tizimli yondashuv asosida amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2021 yil 21 aprelda Yevropa Komissiyasi tomonidan "Sun'iy intellekt to'g'risidagi Akt" qabul qilindi. Ushbu innovatsion normativ hujjat xavf asosida yondoshuvni qo'llaydi, ya'ni bu sun'iy intellekt tizimlarini to'rt darajaga ajratadi: (1) qabul qilib bo'lmaydigan xavf, (2) yuqori xavf, (3) cheklangan xavf va (4) minimal xavf. Ushbu tizimlarni ularning xavfsizlik va asosiy huquqlarga bo'lgan potentsial xavfi asosida tasniflash tez rivojlanayotgan sun'iy intellekt texnologiyalariga bog'liq muammolarni



kamaytirishga qaratilgan hamda innovatsiyalarni rag'batlantiradi va Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlari o'rtasida ishonchni saqlashga yordam beradi.

Sun'iy intellekt Aktining asosi – "qabul qilib bo'lmaydigan xavf" deb tasniflangan sun'iy idrok tizimlarini taqiqlashdir. Buning ichiga odamlarning xulq-atvorini manipulyatsiya qiladigan, zaif guruhlarini ekspluatatsiya qiladigan yoki ijtimoiy baholash usullarini qo'llaydigan texnologiyalar kiradi. Bunday tizimlarni taqiqlash Yevropa Ittifoqining inson qadr-qimmati va mustaqilligini himoya qilishga bo'lgan qat'iy majburiyatini ko'rsatadi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy huquqlarni va erkinliklarni buzmasligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, 2016 yil 27 aprelda qabul qilingan va 2018 yil 25 mayda kuchga kirgan "Ma'lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti" Yevropa Ittifoqining ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Natijada, Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt boshqaruvi bo'yicha yondoshuvi, Yevropa Komissiyasi tomonidan Yevropa Parlamentlari va Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan, dunyo bo'yicha birinchi modellardan biri hisoblanadi. Yuqori xavfli tizimlarni qat'iy nazorat qilish va past xavf tizimlariga nisbatan moslashuvchan va muvozanatli yondashuv ushbu boshqaruv modelining asosini tashkil etadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari, o'z navbatida, sun'iy intellekt boshqaruvi bo'yicha ko'proq desentralizatsiyalashgan, soha-yo'nalishli yondashuvni qo'llaydi. Yagona tartibga solish uslubini joriy etish o'rniga, AQShda turli federal agentliklar tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatmalar va nazoratga tayaniladi. Ushbu model, mamlakatning innovatsiyalarni rag'batlantirishga bo'lgan intilishiga, shu bilan birga tegishli xavflarni maqsadli va moslashuvchan tarzda boshqarishga qaratilgan bo'lib, har bir soha va dastur uchun moslashtirilgan. Har bir agentlikka o'zining tegishli sohasidagi sun'iy intellekt boshqaruvini amalga oshirishda mustaqillik berish orqali AQSh yangi texnologik taraqqiyotga tezda javob berishi mumkin, shu bilan birga har bir sohadagi muayyan muammolarni hal qilib kelmoqda.

AQSh Federal agentliklari, masalan, Milliy standartlar va texnologiyalar instituti sun'iy intellekt xavflarini boshqarish uchun ixtiyoriy standartlar va normalarni ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Masalan, 2023 yil yanvar oyida qabul qilingan Sun'iy Intellekt Xavflarini Boshqarish Hadli Tizimi tashkilotlarga sun'iy intellekt tizimlarining xavflarini aniqlash, baholash va kamaytirish bo'yicha batafsil yo'riqnomalar beradi.

AQSh hukumati shuningdek, sun'iy intellekt sohasidagi innovatsiyalarni rag'batlantirish va mas'uliyatli rivojlanishni ta'minlash uchun zarur choralar ko'rmoqda. Masalan, 2019 yil 11 fevralda qabul qilingan 13859-sonli Ijroya Farmoni AQShning sun'iy intellekt bo'yicha tashabbusi sun'iy idrok tadqiqotlari va rivojlanishini, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, 2022 yil oktyabr oyida Oq uy Ilm-fan va texnologiya siyosati boshqarmasi tomonidan chop etilgan "Sun'iy Intellekt Huquqlari Rejasi" beshta asosiy tamoyilni taqdim etadi. Bu tamoyillar inson huquqlarini himoya qilish va sun'iy intellekt axloqiy amaliyotni ilgari surishga qaratilgan.

Ushbu mamlakat yondashuvining afzalliklaridan biri uning texnologik yutuqlarga tezda javob berishdagi moslashuvchanligidir. Har bir agentlikka o'zining sohasiga xos bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqish va yangilash imkoniyatini berish orqali AQSh yangi xavflarga o'z vaqtida va tezda javob bera oladi.



Xitoy Xalq Respublikasi sun'iy intellektni boshqarishda markazlashtirilgan yondashuvni qabul qilgan bo'lib, bu xavfsizlikni va monitoringni qat'iy nazorat qilishga qaratilgandir. Xitoy hukumati sun'iy intellekt rivojlanishini milliy ustuvorliklar va uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan muvofiqlashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Bunday markazlashtirilgan yondashuv siyosatni tezda joriy etish va davlat organlari, sanoat ishlab chiqaruvchilar va ilmiy muassasalar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash imkonini beradi.

Xitoyning boshqaruv idoralari o'z faoliyatida 2016 yil 7 noyabrda mamlakat Parlamenti tomonidan qabul qilingan va 2017 yil 1 iyunda kuchga kirgan Xitoy Xalq Respublikasining Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonuniga asoslanadi. Ushbu qonun butun mamlakat bo'ylab ma'lumotlar boshqaruvi va xavfsizlik talablarini belgilovchi kompleks tavsiyalarni taqdim etadi. Kiberxavfsizlik qonuniga qo'shimcha ravishda, 2021 yil 10 iyunda qabul qilingan va 2021 yil 1 sentyabrda kuchga kirgan "Ma'lumotlar xavfsizligi to'g'risidagi qonun" milliy ma'lumotlarni himoya qilishga va sun'iy intellekt tizimlarining davlat yaxlitligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Xuddi shunday, 2021 yil 20 avgustda qabul qilingan va 2021 yil 1 noyabrda kuchga kirgan "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun" fuqarolar uchun kuchli himoyani ta'minlaydi va davlatning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga bo'lgan intilishini ko'rsatib turadi.

2021 yil dekabrda Xitoyning Kiberhudud boshqarmasi "Algoritmlar xizmatlari bo'yicha tavsiyalar to'g'risidagi ma'muriy qoidalar"ni ishlab chiqdi hamda ular 2022 yil 1 martdan kuchga kirdi. Ushbu qoidalar kompaniyalardan algoritmlarning shaffofligini ta'minlash, algoritmlar asosida diskriminatsiyani oldini olish va davlat tomonidan tasdiqlangan "ijobiy energiyaga" mos kontentni targ'ib qilishni talab qiladi.

Xitoyning sun'iy intellektni rivojlantirishni milliy strategik maqsadlar bilan muvofiqlashtirishga bo'lgan e'tibori, Xitoy Davlat Kengashi tomonidan 2017 yil 20 iyulda qabul qilingan "Yangi avlod sun'iy intellektini rivojlantirish rejasi" kabi strategik hujjatlardan aniq ko'rinadi. Ushbu reja 2030 yilgacha sun'iy intellekt bo'yicha dunyo lideriga aylanishni maqsad qilgan Xitoyning katta maqsadini belgilaydi hamda texnologik innovatsiyalar, sun'iy intellektni muhim sanoatga integratsiyalash va IT bo'yicha talabalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

O'z navbatida Buyuk Britaniya sun'iy intellektni boshqarish strategiyasini innovatsiyalarga yo'naltirgan va texnologik yetakchilikni axloqiy jihatlar bilan muvozanatlashishga qaratilgan yondashuvni qabul qildi. Buyuk Britaniya boshqaruv strategiyasining markazida 2021 yil sentyabrda Buyuk Britaniya Raqamli texnologiyalar, madaniyat, media va sport vazirligi tomonidan qabul qilingan "Milliy sun'iy intellekt strategiyasi" hujjati o'rin olgan. Ushbu hujjat mamlakatda sun'iy intellekt ekotizimini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va sun'iy idrokning mas'uliyatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgandir.

Ushbu yondashuvni to'ldirgan holda, Buyuk Britaniya hukumati 2022 yil iyulda "Sun'iy intellektni boshqarish uchun innovatsion yondashuvni o'rnatish" mavzusidagi siyosiy hujjatni qabul qilgan bo'lib, unda sun'iy intellektni boshqarish uchun soha bo'yicha majburiy bo'lmagan normalar taqdim etilgan. Tartibga solish muhitining moslashuvchanligini ko'zlayotgan Buyuk Britaniya ortiqcha tartibga solishni oldini olishga va sun'iy intellekt texnologiyalarining ijobiy rivojlanishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, axloqiy standartlarga rioya qilishni ta'minlaydi.



Buyuk Britaniya tartibga solish strategiyasining asosiy elementi 2018 yilda tashkil etilgan Ma'lumotlar etikasi va innovatsiyalar markazidir; bu markaz sun'iy intellekt sohasida axloqiy amaliyotlarni shakllantirishga qaratilgan. Markaz sanoat yetakchilari, ilmiy doiralar va hukumat bilan yaqindan hamkorlik qilgan holda, eng yaxshi amaliyotlarni ilgari surish va jamoat ishonchini oshirishga yordam beradi.

Kanada ham sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha axloqiy va insonparvar innovatsiyalarga yo'naltirilgan yondashuvni qabul qildi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat farovonligini birinchi o'ringa qo'yishi kerakligini ta'kidlab, iqtisodiy o'sishni ham qo'llab-quvvatlaydi. Mamlakatning sun'iy intellekt strategiyasidagi asosiy hujjatlaridan biri 2017 yil mart oyida Kanada hukumati tomonidan ishlab chiqilgan va Kanada ilg'or tadqiqotlar institute tomonidan muvofiqlashtirib boriladigan "Pan-Kanada sun'iy intellekt strategiyasi"dir.

2021 yil aprel oyida Kanada "Sun'iy intellekt va ma'lumotlar to'g'risidagi qonun"ni taqdim etdi. Ushbu qonun mamlakat bo'ylab sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun qat'iy standartlarni belgilashni maqsad qiladi. Qonun maqsadi sun'iy intellekt tizimlari uchun aniq hisobdorlik tuzilmalarini ta'minlash, Kanada hududida foydalanilayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarining xavfsiz va adolatli bo'lishini ta'minlashdir.

Yaponiyaning sun'iy intellektni boshqarish strategiyasi uning "Jamiyat 5.0" hujjati bilan chuqur bog'liq bo'lib, bu kontseptsiya 2016 yil yanvar oyida Yaponiyaning Ilm-fan va texnologiya asosiy rejasida taqdim etilgan. Ushbu kontseptsiya ilg'or texnologiyalarni, shu jumladan sun'iy intellektni, jamiyatning barcha sohalariga integratsiyalashni, hayot sifatini oshirishni va barqaror kelajakni yaratishni maqsad qiladi. Yaponiyaning maqsadi sun'iy intellektni ijtimoiy muammolarni hal qilish, masalan, aholi keksayishi, urbanizatsiya va atrof-muhitni barqaror rivojlantirish kabi murakkab masalalarni hal qilish uchun ishlatishdir. Bu esa sun'iy intellekt strategiyasini mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlik maqsadlarining ajralmas qismiga aylantiradi.

2022 yil iyun oyida Yaponiyaning Ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar bo'yicha Kengashi Sun'iy Intellekt 2022 Strategiyasini nashr etdi, unda mamlakatda sun'iy intellektni rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlar ko'rsatib o'tilgan. Strategiya sun'iy intellekt tadqiqotlari va rivojlanishiga bo'lgan investitsiyalarni oshirish, sun'iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish va sun'iy idrokni boshqarish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

Yana bir ilg'or davlatlardan biri - Singapur sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha yondashuvi 2019 yil noyabr oyida Aqlli Millat va Raqamli Hukumat Idorasi tomonidan tuzilgan "Milliy Sun'iy Intellekt Strategiyasi"da aks etgan. Ushbu strategiya Singapurning sun'iy intellekt sohasida global yetakchilikni egallashi bo'yicha maqsadlarini belgilaydi. Ayniqsa sun'iy intellekt texnologiyalarini sog'liqni saqlash, aqlli shaharlarga va ta'limga oid asosiy milliy sohalarda yaxshilashga qaratadi.

Singapurdagi sun'iy intellektni boshqarishning asosiy tartibga solish vositalaridan biri 2019 yil yanvar oyida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Instituti tomonidan birinchi marta nashr etilgan va 2020 yil yanvarida yangilangan Sun'iy Intellektni Boshqarish Hadli tizimidir.

Xalqaro tashkilotlarning roli ham global standartlarni shakllantirishda, hamkorlikni rivojlantirishda va sun'iy intellektning axloqiy va mas'uliyatli rivojlanishini ilgari surishda



asosiy ahamiyatga ega. Ushbu tashkilotlar davlatlarga sun'iy intellekt texnologiyalarini boshqarish va joriy etish bo'yicha yordam beradigan platformalar sifatida xizmat qiladi.

OECD ning 2019 yil may oyida qabul qilingan "Sun'iy Intellekt Prinsiplari", mas'uliyatli, shaffof va inson manfaatlariga yo'naltirilgan sun'iy intellektni ishlab chiqishda asosiy tavsiyalarni taqdim etadi. 42 mamlakat tomonidan qo'llab-quvvatlangan birinchi hukumatlararo sun'iy intellekt standarti sifatida ko'ruluvchi bu prinsiplar beshta asosiy qadriyatni o'z ichiga oladi: inklyuziv o'sish, inson manfaatlariga yo'naltirilgan qadriyatlar va adolat, shaffoflik va tushunarlilik, barqarorlik va xavfsizlik hamda hisobdorlik.

OECD shuningdek, 2020 yil fevralda sun'iy intellekt rivojlanishini monitoring qilish, eng yaxshi amaliyotlarni almashish va xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish uchun Sun'iy Intellekt Siyosati Observatoriyasini ishga tushirdi. Ushbu observatoriya milliy sun'iy intellekt strategiyalarini xalqaro prinsiplarga muvofiqlashtirishga yordam berib, global miqyosda sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha muvofiqlashtirilgan yondashuvni yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

UNESCO tomonidan 2021 yil noyabrda qabul qilingan "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalar" ushbu sohada global axloqiy standartlarni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. 193 ta davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan ushbu tavsiyalar, sun'iy intellektning inson huquqlari, inklyuzivlik va barqarorlikka mos ravishda rivojlanishini ta'minlash uchun keng qamrovli tuzilma yaratadi. UNESCO inson manfaatlariga yo'naltirilgan yondashuvni ilgari surishni ta'kidlaydi. Bu sun'iy intellekt texnologiyalarini odamlar farovonligini hurmat qilgan holda ishlab chiqishga qaratilgan, shu bilan birga texnologik taraqqiyotga ham ko'maklashadi.

G7 va G20 xalqaro tashabbuslari sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha xalqaro muloqot va muvofiqlashtirishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. 2023 yil may oyida Xirosima sammitida G7 birlashmasi tomonidan e'lon qilingan sun'iy intellektning kelajagi bo'yicha umumiy qarash, ushbu texnologiyalarni xavfsiz, himoyalangan va ishonchli ishlatish uchun umumiy tamoyillarni ko'rsatib beradi.

Shunga o'xshash ravishda, G20 ning 2019 yilda Osakada bo'lib o'tgan sammitida qabul qilingan "Sun'iy intellekt prinsiplari" OECD tavsiyalariga mos keladi va sun'iy intellektida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, xavfsizlikni ta'minlash va inklyuzivlikni rag'batlantirishga qaratilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti sun'iy intellekt uchun universal tartibga solish normalarini yaratish va mas'uliyatli innovatsiyalarni ilgari surishda o'zining markaziy rolini davom ettirmoqda. Shu bilan birga sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha xalqaro muloqotni rag'batlantiradi. 2020 yil iyun oyida BMT Bosh kotibi tomonidan nashr etilgan "Raqamli hamkorlik yo'riqnomasi" sun'iy intellekt bilan bog'liq imkoniyatlar va xavflarni boshqarishda global hamkorlikning muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun 2019 yilda tashkil etilgan BMTning sun'iy intellekt bo'yicha idoralararo ishchi guruhi barcha BMT organlari orasida sun'iy intellekt texnologiyalarining xavfsiz va inson manfaatlari inobatga olingan holda rivojlanishini ilgari surish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirib boradi.

Yana bir muhim xalqaro tashkilot - Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) sun'iy intellektni rivojlantirish va xavfsizlik choralari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlamogda. 2019 yil iyun oyida Bishkekda bo'lib o'tgan tashkilot sammitida a'zo davlatlar raqamli



iqtisodiyotda, ayniqsa sun'iy intellektni rivojlantirishda hamkorlikni kuchaytirishga kelishib oldilar. Shuningdek, 2020 yil noyabrda qabul qilingan SHHT ning raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt bo'yicha hamkorlikka doir Qo'shma deklaratsiyasi, sun'iy intellektga asoslangan innovatsiyalarni rivojlantirish, ishonchli kiberxavfsizlik choralarini ta'minlash va mintaqaviy barqarorlikni saqlash bo'yicha umumiy maqsadlarni belgilaydi.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotdagi asosiy muammolar sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha kelishilgan global tuzilmalarni yaratishni qiyinlashtiradigan bir nechta muhim omillar tufayli yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar huquqiy va madaniy farqlarni, texnologik rivojlanishning tezligini, tartibga solish jarayonlarini ortda qoldirishi va mintaqalar o'rtasida muvofiqlashtirishni ta'minlashdagi qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy va madaniy farqlar, global umumiy sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha hujjatlarini yaratishda sezilarli muammo tug'diradi. Turli mamlakatlar sun'iy intellekt bilan bog'liq xavflarni turlicha belgilashadi, chunki bu ularning o'ziga xos huquqiy tizimlari, madaniy qadriyatlari va ustuvorliklariga asoslanadi. Masalan, ba'zi mamlakatlar shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va inson huquqlarini birinchi o'ringa qo'yishsa, boshqalari esa iqtisodiy o'sish yoki milliy xavfsizlikka ko'proq e'tibor qaratadi.

Shunday ekan, mazkur muammoni hal qilish uchun hukumatlar va xalqaro tashkilotlar ko'proq moslashuvchan va dinamik tartibga solish modellarini qabul qilishi kerak. Innovatsiyalarning tez sur'atlariga moslashishga qodir bo'lgan va moslashuvchan tizimlar xavfsiz va axloqiy sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishini ta'minlashga yordam beradi.

References:

1. Cath, C., Wachter, S., Mittelstadt, B., Taddeo, M., & Floridi, L. (2018). Artificial Intelligence and the 'Good Society': The US, EU, and UK Approach. *Science and Engineering Ethics*, 24(2), 505-528.
2. European Commission. (2021). Proposal for a Regulation of the European Parliament and of the Council Laying Down Harmonised Rules on Artificial Intelligence (Artificial Intelligence Act). Brussels: European Commission.
3. Jo, A., Ienca, M., & Vayena, E. (2019). The Global Landscape of AI Ethics Guidelines. *Nature Machine Intelligence*, 1(9), 389-399.
4. Roberts, H., Cows, J., Morley, J., Taddeo, M., & Floridi, L. (2021). The Chinese Approach to Artificial Intelligence: An Analysis of Policy, Ethics, and Regulation. *AI & Society*, 36(1), 59-77.